

BO'LAJAK LOGOPEDLARNI KORREKSION ISHLARNI LOYIHALASHTIRISHGA O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Zakirova Sarvinoz Baratovna,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18358637>

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi kunda OTM da ta'limni tashkil etish va amalga oshirish sifatini oshirish hamda kasbiy darajada ta'lim berishning eng muhim maqsad va vazifasi jahon talablari darajasidagi raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlash sanaladi. Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim oldiga yangi metodik kompetensiyalari rivojlanishiga ega bo'lajak logopedlarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Chunki ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida nutqida nuqsoni bo'lgan tayarlov guruh tarbiyalanuvchilarni fonematik idroki rivojlanmaganligi oqibatida kelib chiquvchi fiziologik xususiyatlarini hisobga olish, ular bilan korreksion ishlarni olib borish, nutqiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish tajribasini, egallashlari lozim.

Kalit sozlar: korreksiya, metodika, loyihalashtirish, kompetentlik, "shaxsning" integratsiyalashish "qobiliyati", metodologiya, kasbiy faoliyat, metodik kompetensiya, diagnostik, konsultativ.

Аннотация. В настоящее время важнейшей целью и задачей повышения качества организации и реализации образования в высших учебных заведениях, а также профессионального обучения является подготовка конкурентоспособных выпускников на уровне мировых стандартов. На сегодняшний день перед высшим педагогическим образованием поставлена задача подготовки будущих логопедов с развитием новых методических компетенций. Потому что в многопрофильной специализированной государственной дошкольной образовательной организации необходимо учитывать физиологические особенности воспитанников подготовительной группы с дефектами речи, возникающие в результате неразвитого фонематического восприятия, проводить с ними коррекционную работу, приобретать опыт формирования и развития речевой деятельности.

Ключевые слова: коррекция, методика, проектирование, компетентность, "способность личности" к интеграции, методология, профессиональная деятельность, методическая компетентность, диагностическая, консультативная.

Abstract. Currently, the most important goal and task of improving the quality of organization and implementation of education in higher educational institutions and providing education at a professional level is the training of competitive graduates at the level of world requirements. Today, higher pedagogical education is faced with the task of training future speech therapists with the development of new methodological competencies. Because in a multidisciplinary specialized state preschool educational organization, it is necessary to take into account the physiological characteristics of pupils of the preparatory group with speech defects, arising as a result of the underdevelopment of phonemic perception, to carry out corrective work with them, to acquire experience in the formation and development of speech activity.

Keywords: correction, methodology, design, competence, "person's" ability to integrate, methodology, professional activity, methodological competence, diagnostic, consultative.

Kirish. Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishni ko'zda tutgan yangi innovatsion rivojlantiruvchi o'qitish modellari ta'lim jarayoniga keng tadbiiq etilmoqda.

Innovatsion-integrativ g'oyalarning oliy ta'lim amaliyotiga joriy etilish bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, optimalashtirish jarayonini samarali amalga oshirishini dalilmoqda.

Hozirgi kunda OTMda ta'limni tashkil etish va amalga oshirish sifatini oshirish hamda kasbiy darajada ta'lim berishning eng muhim maqsad va vazifasi jahon talablari darajasidagi raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlash sanaladi. Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim oldiga yangi metodik kompetensiyalari rivojlanishiga ega bo'lajak logopedlarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Chunki ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida nutqida nuqsoni bo'lgan tayarlov guruh tarbiyalanuvchilarni fonematik idroki rivojlanmaganligi oqibatida kelib chiquvchi fiziologik xususiyatlarini hisobga olish, ular bilan korreksion ishlarni olib borish, nutqiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish tajribasini, egallashlari lozim. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar tahlili doirasida bo'lajak logoped tomonidan baholash, tarkiblash amalga oshiriladi, lekin ular tomonidan mashg'ulotni loyihalashtirish, mashg'ulotni tarkibiy qismlarini muayyan o'quv vaziyatlari bilan bog'liq takribiy qismlar, mazmun bilan ishlashga, uslubiy vaziyat yechimini topishga e'tibor berilmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, xususan, korreksion ishlarni loyihalashtirish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlarida muhim yo'nalish sifatida yoritilgan. N.N. Azixodjaeva, M.Yu. Ayupova, O.Yu. Bozorov tadqiqotlarida metodik kompetensiya va kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, I.A. Zimnyaya ishlarida esa faoliyat, kompetentlik va rivojlantiruvchi ta'lim nazariy asoslari ochib berilgan. Shunga qaramay, bo'lajak logopedlarni aynan korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirish masalasi yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda nazariy tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-pedagogik va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish orqali bo'lajak logopedlarning kasbiy va metodik kompetensiyalarini shakllantirishga qo'yiladigan talablar tahlil qilindi. Shuningdek, korreksion ishlarni loyihalashtirish jarayonining bosqichlari va mazmuni aniqlanib, ularning samaradorligi pedagogik kuzatuv asosida baholandi. Olingan natijalar tizimlashtirilib, xulosalar chiqarildi.

Tahlillar va natijalar. Bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirish pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, logoped amalga oshiriladigan, nutqida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik ish olib borish va samarali natijalarga erishiladigan o'qituvchi mehnati kasbiy vakolatli hisoblanadi.

Bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish bir biriga

bog‘liq bo‘lgan komponentlardan (tarkibiy qismlardan) iborat, ba‘zi komponentlar ko‘proq kognitiv, boshqalari esa – emotsional sohaga tegishli, ushbu komponentlar, samarali ahloqning tarkibiy qismlari sifatida bir birining o‘rnini bosadi.

Bo‘lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o‘rgatish metodikasini takomillashtirishga qo‘yilgan pedagogik talablar tahlili umumiy kompetensiyalar, kasbiy kompetensiyalar tasniflanishini ko‘rsatdi. Umumiy kompetensiyalar sifatida logopedning davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish, xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish; sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lishini ko‘zda tutiladi. Kasbiy kompetensiyalar tarkibiga logopediya tarixi, nazariyasiga oid bilimlarni egallash, maxsus pedagogikaning dolzarb masalalarini ilg‘ay olish va tarbiyalanuvchilarga yetkaza olish, an‘anaviy va noan‘anaviy metodlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ixtisoslikka mos fanlarni o‘qitish chog‘ida tanlay olishi, o‘z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo‘llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olish; rivojlanishida og‘ir va ko‘p nuqsonga ega bo‘lgan bolalar uchun ularning psixik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks baholash asosida yakka rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni bilishiga oid bilim, malakalarni qamrab oladi. Logoped korreksion ishlarni amalga oshirish maqsadida ota-onalarga bolada mavjud nuqsonlarning xususiyatlari va uning rivojlanish istiqboli haqidagi ma‘lumotlar berishni, ularni korreksion-pedagogik faoliyat jarayoniga teng huquqli partnerlar sifatida jalb eta olish, ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tomondan erta tashxis qilishni, ular uchun yakka korreksion-rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqishni bilishi ham kasbiy kompetensiyalar jamlanmasiga kiradi.

Bo‘lajak logopedlar tomonidan amalga oshiriladigan korreksion ishlar mazmuni maktabgacha ta‘lim davlat talablariga muvofiq nutqida nuqsoni bolalarga maktabgacha ta‘limning asosiy ta‘lim dasturini o‘zlashtirishda kompleks yordam ko‘rsatish tizimini yaratish, ta‘lim oluvchilarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish, ularni ijtimoiy moslashtirish va ushbu toifadagi bolalarga maktabgacha ta‘limning asosiy dasturini o‘zlashtirishda yordam berishga qaratilgan. Nutqida nuqsoni bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar nutq buzilishlarining oldini olish, logopedik diagnostika, nutq nuqsonlarini tuzatish, nutqning barcha tomonlarini (komponentlarini) shakllantirish, noverbal psixik funksiyalarning rivojlanishi, hissiy-irodaviy sohani rivojlantirish, bolaning axloqiy e‘tiqodlarini shakllantirish kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Korreksion ishlarni loyihalash bolaning individual nutq profili va shaxs xususiyatlariga muvofiq mutaxassis o‘z oldiga vazifalar ro‘yxatini mustaqil ravishda

qo'yishi, vazifalarni sifatli amalga oshirish nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'limning asosiy umumta'lim dasturini o'zlashtirish va ularni maktabgacha ta'lim muassasiga integratsiya qilish imkoniyatini rejalashtirish, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat bo'lib, tayyorgarlik, faoliyatli, nazorat kabi uch bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchi bosqich tayyorgarlik bosqichi bo'lib, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining fonetik-fonematik, leksik, semantik, grammatik, sintaktik komponentlari tomonini korreksiyalash va rivojlantirishga qaratilgan korreksion ishlarni loyihalashtirish uchun vaqt taqsimoti, kommunikativ ko'nikma va malakalarni shakllantirish jadvali va tematik rejasi, muddati, nazorat shakllari va metodlari, mustaqil ishni bajarish jarayonida o'zini o'zi boshqarish shakllari va usullarini qamrab oladi. Bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatishning tahliliy bosqichida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining fonetik-fonematik tomonini korreksiyalash va rivojlantirish, nutqning leksik komponentini shakllantirish, so'zlarning semantik strukturasi shakllantirish, nutqning grammatik tomonini shakllantirish kabi o'quv maqsadlari va natijalarini belgilanadi.

Nazorat bosqichida bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish natijasida erishilgan natijalarini namoyish etadilar, ularning jamoaviy muhokamasi o'tkaziladi va yangi yutuqlar oldingidagi shunga o'xshash yutuqlar bilan taqqoslanadi. Belgilangan rejalashtirilgan natijalar bolalarni korreksion-logopedik qo'llab-quvvatlash tizimida to'g'ridan-to'g'ri aks etadi.

Bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirish modeli yakuniy-natijaviy blokdan maqsadi bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning modeli va texnologiyasini amalga oshirishni nazorat qilish, baholashdir. Ushbu bosqichida bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rganganligini tashxis etish mezonlari, ko'rsatkichlari, indikatorlari hamda diagnostik vositalari aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirish ularning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Korreksion ishlarni loyihalash jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu metodikaning amaliyotga joriy etilishi bo'lajak logopedlarning mustaqil, ijodiy va mas'uliyatli faoliyat olib borishiga xizmat qiladi. Natijada ta'lim sifati va korreksion-pedagogik ishlar samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'limi Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-son

Farmoni.

2. Azizxodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T., 2000.
3. Amirsaidova Sh. Bo'lajak pedagogika taraqqiyotida Sharq mutafakkirlari g'oyalarning o'rni. Ped. fan. nomz. diss. avtoref. – T.: 2006. – 21 b.
4. Аюрова М.Ү. Logopediya. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” nashryoti, 2011.
5. Выготский Л. С. Проблемы дефектологии. – М.: Просвещение, 1995. – 527 с.
6. Гребенев, И. В. Методическая подготовка студентов университетов / И. В. Гребенев // Педагогика. – 1996. № 1. – С. 37-40
7. Bozorov O.Y. Bo'lajak logopedlarni metodik kompetensiyalarni rivojlantirish. Ped. fanl. nom. diss... – T., 2021.
8. Зимняя, И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании / И.А.Зимняя. – М.: Исслед. центр пробл. качества подгот. специалистов: 2004. – 56 с.
9. Ковалева, И. В. Развитие научно-методической компетентности педагогов в условиях образовательного выбора: автореф. дис. ... канд. пед. наук / И. В. Ковалева. – Мурманск, 2007. – 18 с
10. Круглов Ю. Г., Пивоварова Н. П. Проблемы подготовки учителей-дефектологов в педагогических институтах // Дефектология. 1996. – № 1. – С. 4-10.
11. Ландшеер В. Концепция «минимальной компетентности» / I.V.Ландшеер // Перспективы. – 1988. №1. – С. 27-28
12. Лебедева О.В. Развитие методической компетентности учителя как средство повышения эффективности учебного процесса в общеобразовательной школе: автореф. дис канд. пед. наук / О.В.Лебедева. ГОУ ВПО «НГАУ», 2007. – 6 с.
13. Леонтьев А.Н. Общее понятие деятельности / А.Н.Леонтьев // Хрестоматия по возрастной психологии : учеб; пособие для студентов / сост. Л.М. Семенюк; под ред. Д.И. Фельдштейна. – М.:Международная педагогическая академия, 1994. – С. 112-121.
14. Лукьянова, М. И. Профессиональная компетентность педагога : теоретический анализ понятия / М. И. Лукьянова // Управление Дошкольным Образовательным Учреждением. – 2007. № 1 (35). – С. 8.
15. Чичерина, Д.Нуркельдиева ва Е.Бондарева. Бўлажак дефектолог-кадрларни тайёрлашда инновацион ёндашувлар. – Т. 2016. – 82 б.